



IJARA (ISLOMIY LIZING) VA AN'ANAVIY LIZINGNING QIYOSIY TAHLILI

Irgasheva Gulbahor Sodiqovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-0955-664X

Zayniddinov Ruhiddin Xusniddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-2778-8147

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomiy moliya instrumenti ijara (lizing)ning nazariy asoslari, tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari haqida ma'lumotlar berilib, shuningdek islomiy va an'anaviy lizingning bir biridan farqli jihatlari yoritib berilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda islom moliyasi, xususan, ijara shartnomasining amaliyoti hamda islom moliyasining ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlariga doir masalalar keltirilgan.

Kalit so'zlari: an'anaviy lizing, me'yoriy-huquqiy baza, IsTB, XSRIK, Taiba Lizing, investitsiya loyihalari.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИДЖАРА (ИСЛАМСКОГО ЛИЗИНГА) И ТРАДИЦИОННОГО ЛИЗИНГА

Иргашева Гулбахор Садиқовна

Ташкентский государственный

экономический университет,

Зайниддинов Рухиддин Хуснидин угли

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических основах, организационно-управленческой системе и принципах практического применения исламского финансового инструмента иджара (исламский лизинг), а также о различиях между исламским и традиционным лизингом. Кроме того, представлены исламские финансы в Узбекистане, в частности, практика заключения договора иджара (исламского лизинга) и возможности исламского финансирования для привлечения отечественных и иностранных инвестиций.

Ключевые слова: традиционный лизинг, нормативная база, ИБР, МКР, Тайба Лизинг, инвестиционные проекты.

COMPARATIVE ANALYSIS OF IJARA (ISLAMIC LEASING) AND TRADITIONAL LEASING

PhD Irgasheva Gulbakhor Sadikovna

Tashkent State University of Economics

PhD Zayniddinov Rukhiddin Khusnidin Ugli

Tashkent State University of Economics

Annotation. This article provides information on the theoretical foundations, organizational and management system, and principles of practical application of the Islamic financial instrument Ijara (Islamic leasing), as well as the differences between Islamic and traditional leasing. In addition, Islamic finance in Uzbekistan, in particular, the practice of the ijara (Islamic leasing) contract and the possibilities of Islamic finance to attract domestic and foreign investments are presented.

Key words: traditional leasing, regulatory framework, IsDB, ICD, Taiba Leasing, investment projects.

Kirish.

Islom moliyasi jahon moliya sanoati ichida eng tez o'sib borayotgan soha sifatida ko'rilmoqda. Buning sababi nafaqat musulmon mamlakatlarida shu bilan birgalikda musulmon bo'lmagan mamlakatlarida ham ushbu sohani rivojlantirish uchun chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Islom moliyasiga qiziqish ayniqsa 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin rivojlangan mamlakatlarning e'tiborini tortdi. Ya'ni, AQSHda ipoteka kreditlari ortidan kelib chiqqan moliyaviy inqiroz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga sabab bo'lgan sharoitda ham islom moliya sanoati o'sishda davom etdi. Bu esa ko'p mamlakatlarning islom moliyasiga ishonchini ortishiga olib keldi. Islom moliyasining bunga o'xshash inqirozlardan holi bo'lishiga sabab esa moliyaviy amaliyotlarning aktivlar bilan bog'langan holda shariatning ko'rsatmalari asosida olib borilishida hisoblanadi.

Islom moliyasining yuridik va jismoniy shaxslar uchun zarur bo'lgan barcha moliyaviy amaliyotlari uchun instrumentlari mavjud bo'lib, an'anaviy moliya vositalarining barcha muqobil mahsulotlari bor. Shuningdek, islom moliyasidan foydalanishning kengayib borishini yana bir qator sabab va omillar bilan bog'lash mumkin:

- dunyo bo'ylab Islom diniga e'tiqod qiluvchilar ya'ni musulmonlar sonining oshishi;
- adolat me'zonlariga asoslanadigan, ribodan holi, ijtimoiy xususiyatdagi adolatli investitsiyalarga qiziqishning yildan yilga ortib borishi;
- mamlakatlar tomonidan islom moliyasi uchun qonunchilikni ishlab chiqilishi va qabul qilishning ortishi.

Islom moliyasi deganda shariat tamoyillari asosida amalga oshiriladigan moliyaviy xizmat yoki mahsulot tushuniladi (Gait va Uortington, 2008).

Islomda moliyalashtirish tushunchasi an'anaviy yoki "G'arb moliyasi"dan farq qiladi. Islomiy moliya tizimini an'anaviy tizimdan farqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi (Miraxorva Iqbol, 2011).

Birinchidan, islom moliya tizimi tenglik, adolatli jamiyat va iqtisodiy tartib uchun intiladi. Islomiy moliya tizimida foizning (ribo) taqiqlanishi, ekspluatatsiyadan qochish, narxlarni manipulyatsiya qilish orqali foyda olishdan qochish va kambag'allarni (ya'ni qarz oluvchi) himoya qilish uchun mo'ljallangan.

Ikkinchidan, islom moliya tizimi hamkorlik va birodarlik tamoyiliga urg'u beradi. Bu an'anaviy moliya tizimidagi tadbirkorning kreditga layoqatliligidan ko'ra biznes samaradorligini oshirishga yordam beradigan tavakkalchilik, foyda va zararni taqsimlash tizimidan dalolat beradi.

Uchinchidan, islom moliyasi shariatning axloqiy mezonlari bilan asoslanadi.

Shuning bilan birgalikda, bir qancha tadqiqotlar ko'rsatadiki, bazi mamlakatlarda islom moliyasi keng rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida islom moliyasi haqida tushuncha, shu jumladan islomiy moliya mahsulotlari haqida xabardorlikni pastligi aniqlangan. Ya'ni, islomiy moliya vositalarining mohiyati, uning imkoniyatlari va an'anaviy muqobilaridan afzalliklari, farqlari yoki o'xshash xususiyatlari haqida xabardorlikni kamligi bilan izohlanadi.

Shu jihatlarni inobatga olgan holda, O'zbekistonda ham islomiy moliya mahsulotlarini kelajakda keng amaliyotga joriy qilinishiga o'zimizni hissamizni qo'shish maqsadida islomiy moliya mahsuloti ijara (islomiy lizing) shartnomasini mazmun mohiyati va an'anaviy lizing shartnomasi bilan farqli va o'xshash xususiyatlarini qiyosiy tahlilini taqdid etishni maqsad qildik.

Adabiyotlar sharhi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, islom moliyasi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab juda tez sur'atda rivojlanib borayotgan jahon moliya sanoatining yetakchi qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Islom moliyasi eng ilg'or soha sifatida nafaqat musulmon mamlakatlari, balki musulmon bo'lmagan mamlakatlar ham o'z moliya sanoatlarida qo'llamoqdalar.

Bu borada ko'plab xorijiy, MDH mamlakatlari, o'zbek olimlari va tadqiqotchilari bu sohaga doir o'z izlanishlarini olib borishgan va uning natijalarini o'z tadqiqotlarida bayon etishgan. Xususan, Fatima, (2006) islom moliyasi, islomiy moliyalashtirish vositalariga oid ko'plab taqdiqot ishlari olib borgan. U islomiy va an'anaviy lizingning o'rtasidagi farqlarni yoritishga harakat qilgan, uning ayniqsa, "Ijara va an'anaviy lizing shartnomalari o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar" nomli tadqiqot ishida ijara to'g'risida ma'lumotga ega bo'luvchilar uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Kamali (2007) ham islom moliyasi, uning mahsulotlari xususida o'zining tadqiqot ishlarini olib borgan. Ayniqsa, uning "Islom lizingidagi masalalarning shariat tahlili" tadqiqot ishida islom lizingidan foydalanishdagi shariat talab qilgan yo'l-yo'riqlar, majburiyatlarni va unga oid masalalarni yoritib bergan, shuningdek, islomiy va an'anaviy lizingdagi farqli tomonlarni ochib bergan.

Muhammad Haroon Ameer va Muhammad Saud Ansari (2014) kabi olimlar ham islom moliyasiga doir ko'plab tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan, xususan, ularning "Islomiy bank: ijara va an'anaviy lizing" tadqiqot ishlarida islomiy va an'anaviy lizingning xususiyat, majburiyat va vazifalarini, shuningdek, ular o'rtasidagi farqli jihatlarini yoritishgan. Bundan tashqari, ular ushbu tadqiqotlardagi ma'lumotlarni tadbirkorlar va banklar o'rtasida so'rovnomaga o'tkazish orqali to'plashgan va tadqiqotlarida Cronbach's Alpha, korrelyatsiya va regressiya bo'yicha uchta testni qo'llashgan. Bu emperik tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ijara, an'anaviy lizing va islom banki o'rtasida mustahkam aloqa mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, Shayx Muhammad Taqi Usmoniy (2011) o'zining "Islom moliyasiga kirish" kitobini yozib, ushbu kitobda asosan islom banklari, nobank moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirishning turli usul va vositalariga doir ma'lumotlar berilib, islom moliyasining qoidalari, tamoyillari va uslublarini bayon etgan. Jumladan, islomiy moliya shartnomasi ijara, uning amaliyotda ishlatilish tuzilmasi va ularga doir barcha masalalar batafsil yoritib berilgan. Bugungi kunga kelib, bu kitob butun dunyo bo'ylab mutaxassislar, ushbu sohani o'rganuvchilar, tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun qimmatli qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda.

Nikonova Tatiana esa o'zining "Islom moliya institutlarining tamoyillari va vositalari" tadqiqot ishida islom moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirishning asosiy vositalari va mexanizmlari va ularni amaliyotda qo'llashdagi jarayonlarni yoritib bergan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham bu soha bo'yicha tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borayotgan olim va izlanuvchilarning yildan-yilga ko'payotgani tahsinga sazovordir. Ular o'zlarining izlanishlarining natijalarini doimo e'lon qilib borishi bu sohaga qiziqish bildirayotgan yangi o'quvchilar uchun ayni muddaodir.

Jumladan, S. Abrorov (2020) "O'zbekistonda sukuk islomiy qimmatli qog'ozini joriy etish istiqbollari" ga doir tadqiqot ishida O'zbekistonda sukukni joriy etishga doir o'zining taklif va tavsiyalarini ishlab chiqqan. Xususan, ijara sukukuni chiqarishning konseptual asoslarini ko'rsatib bergan. Shuningdek, o'zimizning (Zayniddinov, 2023). "O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moliyalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish" nomli avvalgi maqolamizda ijara shartnomasidan davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarini moliyalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini O'zbekiston misolida ko'rib chiqqan edik. Bundan tashqari, yana bir ishimizda (Irgasheva, 2024) "Islom iqtisodiyotida investitsiyalar: ularning tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari" nomli maqolamizda islomiy investitsiya shartnomalari mudoraba va mushorakanining nazariy asoslari, amalda qo'llash tamoyillari va ularning qiyosiy tahlilini amalga oshirgan edik. Shuningdek, Saydirasulov (2023) o'zining "Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlaridan foydalanishga oid tadqiqot ishida islom moliya bozorini tadqiq qilish orqali O'zbekistonda islomiy investitsiyalar oqimi hajmini kengaytirishga doir o'zining xulosa va takliflarini bergan.

Mazkur tadqiqotimiz yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarini qo'llab-quvvatlab, ijara to'g'risida va uning an'anaviy lizingdan farqli va o'xshash xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishni maqsad qilganlarga bir manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolamizni ilmiy jihatdan keng darajada tahlil qilishda sifat yondashuvidan foydalanildi. Shuningdek, ijara islomiy moliyalashtirish vositasini tadqiq qilishda induksiya va deduksiya usullari, grafik tasvirlash kabi tadqiqot usullaridan samarali ravishda foydalanildi. Bundan tashqari, islomiy va an'anaviy lizing o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishda qiyosiy tahlil qilishdan ham samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Islom moliyasida turli shartnomalar mavjud: mudoraba, mushoraka, salam, takaful, murobaha, sukuk, ijara va istisno. Biz avvalgi tadqiqot ishimizda islomiy investitsiya shartnomalari mudoraba va mushoraka haqida fikr yuritgan edik Irgasheva (2024), Zayniddinov (2023). Bugun esa biz ijara haqida izlanishlarimizni olib borishga qaror qildik.

Ijara xususida ko'plab olimlar turlicha fikr bildirishgan, ulardan biri M.Usmani: "Islom fiqhida "ijara" atamasi ikkita, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Birinchidan, u "biron-bir kishini xizmatidan to'lov evaziga foydalanish, ushbu evaz unga ko'rsatilgan xizmat uchun mukofot sifatida beriladi". Ijaraning ikkinchi shakli esa mulk va egalik huquqidan foydalanishga kiradi. Ijaraning ushbu ma'nosi "ma'lum bir mulkdan foydalanish huquqini undan renta undirish hisobiga boshqa shaxsga o'tkazish"ni anglatadi. "Ijara" atamasining mazkur ma'nosi inglizcha "lizing" atamasiga o'xshashdir" Baydaulet, (2019).

1-jadval

Ijaraning asosiy qoidalari va shartlari

1.	Lizingga berilayotgan mulk foydalansa bo'ladigan mulk bo'lishi talab etiladi, masalan uy, mashina, asbob-uskunlarga o'xshash narsalar, ammo pul, oziq-ovqat, yoqilg'i va shu turdagi narsalarni lizingga berib bo'lmaydi;
2.	Bu shartnomaning o'ziga xos xususiyati lizingga berilayotgan mulkning egalik huquqi mulk beruvchining o'zida qoladi, lizing oluvchi shaxs esa foydalanish huquqiga ega bo'ladi;
3.	Lizingga berilayotgan mulk tomonlar o'rtasida aniqlab olingan bo'lishi kerak, shundagina lizing shartnomasi durust bo'ladi;
4.	Lizing shartnomasiga ko'ra, lizingga berilayotgan mulkning egalik huquqi beruvchida bo'lgani uchun egalik huquqiga doir barchaga majburiyatlar uning zimmasida bo'lsa, foydalanishga doir majburiyatlar esa lizing oluvchining bo'ynida bo'ladi;
5.	Lizingda ham, boshqa shariatda joiz hisoblangan shartnomalardagi kabi, lizing muddati aniq ko'rsatilishi talab etiladi;
6.	Lizing shartnomasida lizing beruvchi va oluvchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, lizingni ko'rsatilgan maqsaddan boshqa maqsadda ishlatish joiz hisoblanmaydi. Agar lizing oluvchi boshqa maqsadda foydalanmoqchi bo'lsa, lizing beruvchidan ruxsat olishi talab etiladi;
7.	Lizingning yana bir o'ziga xos xususiyati, lizingga berilgan mulkka ikki va undan ortiq shaxslar egalik qilsa, foydalanuvchidan olingan ijara haqi mulk egalari o'rtasida mulkdagi ulushlariga mos tarzda taqsimlanadi;
8.	Lizing kelishuvini amalga oshirayotganda tomonlar ijara haqini butun lizing muddati uchun aniqlab olishlari talab etiladi, shuningdek, lizing muddatining turli davrlarida turlicha ijara haqini to'lash mumkin, ya'ni biror bir aktiv uchun oluvchi beruvchiga ijara haqini birinchi yil uchun ma'lum miqdorda keyingi yillar uchun esa ma'lum foizda oshib borish shartiga kelishib olish mumkin, ayniqsa, bu uzoq muddatli lizing shartnomalarida butun lizing muddati davomida bir xil o'zgarmas miqdordagi ijara haqi olish lizing beruvchi uchun to'g'ri kelmasligi mumkin, chunki bozor sharoiti yildan yilga o'zgarib turadi.

Bugungi kunda, ko'plab mamlakatlar islomiy lizingdan foydalanib, foizli kredit berish o'rniga mijozlariga uskunalarini ijaraga berishni o'z amaliyotlarida qo'llamoqdalar. Moliyaviy tashkilotlar uskunaning asl tannarxi va undirilishi belgilab olingan foiz to'lovlarini qo'shish orqali lizing to'lovi chiqariladi va bu qancha muddatda to'lanishiga ko'ra, oylar soniga bo'lib yuboriladi va lizingning bir oylik to'lov miqdori kelib chiqadi. M.Al-Jarhi va M. Iqbal "Kelishuv bo'yicha bank avval mijoz talabi bo'yicha buyum, ko'chmas mulk va hokazolarni sotib oladi, keyin esa uni mijozga ijaraga beradi. Ijara muddati davomiyligi va ijara to'lovi miqdori (o'rnatilgan yoki vaqt davomida o'zgaradigan) tomonlar tarafidan kelishib olinadi" deb ta'kidlashgan. Yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkinki, lizing savdo-sotiqqa o'xshash jarayon hisoblanadi, negaki muayyan narsa yoki mulk, ma'lum haq evaziga mijozga o'tadi, lekin ikkalasi o'rtasidagi farq shundan iboratki, savdoda xaridor ma'lum buyumni sotib olsa, mulkdagi egalik xaridorga o'tadi, ijara esa mulkdagi egalik ijara beruvchida qolib, mijoz esa foydalanayotgani uchun ijara haqi to'laydi.

Yuqoridagi 1-jadval mualliflar tomonidan turli manbalar va ulardagi ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'lib, unda ijaraning asl mohiyati, mazmuni, foydalanishdagi yo'l-yo'riqlar va ko'rsatmalarni zamonaviy iqtisodiy amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan lizing borasidagi tamoyillarning asosiylarini, shuningdek, lizing kelishuvlarini amalga oshirishda tomonlarning vazifalari, huquq va majburiyatlarini yoritib berilgan.

2-jadval

An'anaviy lizing va ijara (Islomiy lizing)ning qiyosiy tahlili.

Farqiy mavzulari	An'anaviy lizing	Shariat ruxsat bergan islomiy lizing
1. Ijara haqini amalga oshirish muddati	An'anaviy lizingda lizingga berilgan mulk uchun ijara haqi uskuna yetkazib berilishidan oldin lizing oluvchi tomonidan to'lov amalga oshirilishi kerak.	Shariat ruxsat bergan lizingda esa lizingga berilgan mulk uchun ijara haqi mulk foydalanuvchiga yetkazib berilgandan keyin hisoblanadi. Lizing oluvchi ijara haqini yoki uning ma'lum qismi lizing beruvchiga oldindan to'lanishi mumkin, bu lizing oluvchining ixtiyori, bu haqlar lizing beruvchida o'zgarmasdan saqlanadi va ijara to'lovini to'lash davri kelganda unga qo'shilib, ijara haqlaridan deb hisoblanadi.
2. Risklarga javobgar tomon	An'anaviy lizingda, lizingga berilgan mulk bilan bog'liq barcha xavflar: mukning tasodifan yo'qolishi yoki nobud bo'lishi, tasodifan buzilishi, o'g'irlanishi, erta eskirishi, shikastlanishi xavflari lizing shartnomasi ko'ra mulk lizing oluvchiga berilganidan, ya'ni lizing oluvchining tasarrufiga o'tganidan boshlab, shartnoma muddati tugaguniga qadar (ba'zi hollarda lizing shartnomasi tomonlar o'rtasida erta bekor qilinishi mumkin) mulkka lizing oluvchi javobgar hisoblanadi.	Lizingga berilgan mulkka foydalanuvchi tomonidan ehtiyotsizlik oqibatida yuzaga kelgan zarar, lizing oluvchi tomonidan qoplanadi, agar bu teskarisi ya'ni lizing oluvchi tomonidan emas, o'z-o'zidan sodir bo'lsa, lizing beruvchi tomonidan qoplab beriladi. Agar lizingga berilgan mulk butunlay ishdan chiqqan bo'lsa, qayta tuzatish va ishlatish imkoni bo'lmasa, ijara haqi olish to'xtalib, ishdan chiqish sabablari o'rganiladi. Agar talofat lizing oluvchining ehtiyotsizligi sabab sodir bo'lgan bo'lsa, mulkning zarardan oldingi qiymati oluvchi tomonidan to'lab beriladi. Lizingga berilgan mulk beruvchining mulki sababli lizing muddati davrida lizing beruvchining riskida bo'lib, oluvchiga bog'liq bo'lmagan barcha xavflar, shuningdek, tashqi omillar sababli yetkazilgan zarar lizing beruvchining zimmasida bo'ladi.
3. Ijara haqini belgilash usuli	An'anaviy lizingda ijara haqlarini, lizing obyektini sotib olib, olish narxi ustiga foiz stavkasini qo'shib ijara haqi miqdorini belgilashadi. (Ijara	Islomiy lizingda esa ijara haqlari miqdorini quyidagicha belgilashni shar'iy jihatdan joiz hisoblashgan:

	<p>haqlarini foiz stavkaga bog'lash bilan lizing foizli kredit muomalasiga o'xshab qoladi, shuningdek, foiz stavkalaridagi doimiy o'zgarishlar natijasida to'lanadigan ijara haqlari (kelajakdagi o'zgarib turish hisobiga ham) noma'lum bo'lib qoladi, buning natijasida shariatda ta'qiqlangan jahala va g'arar elementlari yuzaga keladi).</p>	<p>-hukumat lizing beruvchidan oladigan soliq miqdorini qancha oshirsa, ijara haqini o'sha miqdorda oshirishi joiz; -ijara haqini inflatsiya ko'rsatkichiga bog'lab, yillik ravishda oshirib borish mumkin (inflatsiya 4 foizga oshsa, ijara haqini 4 foizga oshirish mumkin); -ijara haqlarini belgilashda foiz stavkasidan faqat benchmark sifatida ishlatish mumkin (foiz stavkasidan iloji boricha benchmark maqsadida ham foydalanmaslik tavsiya etiladi).</p>
4. Jarima undirish masalasi	<p>Ayrim moliyaviy lizing bitimlarida ijara haqini kelishilgan muddatdan kechiktirib to'lagani uchun mijozdan jarima undiriladi.</p>	<p>Islomiy lizingda esa ijara to'lovi kechiktirilsa, lizing oluvchi qarzdor hisoblanib, uning hukmi amalga kiradi. Qarzini vaqtida to'lamagan yoki kechiktirgan qarzdordan qo'shimcha undiriladigan har qanday to'lov ribo hukmida bo'ladi. Shuning uchun islomiy lizingda lizing beruvchi lizing oluvchidan ijara haqi kechiktirilgani uchun jarima ola olmaydi. Bunday holat yuzaga kelganda, ulamolar tomonidan ba'zi yechimlar berilgan: Agar lizing oluvchi ijara haqini kechiktirsa, lizing oluvchidan ma'lum bir miqdorda pul undirish mumkin, shuningdek, kechiktirilgan ijara to'lovi kechiktirish muddatiga qarab, ijara miqdori turlicha bo'lishi, yillik foiz shaklida hisoblanishi mumkin va bu hech qachon lizing beruvchining daromadiga qo'shilmaydi, balki jarimalar lizing beruvchi tomonidan tashkillashtirilgan va boshqariladigan Xayriya Jamg'armasiga tushadi va bu to'lovlar shariat ruxsat bergan maqsadlarda faqat xayr-ehson ishlariga yo'naltiriladi va sarflanadi.</p>
5. Tomonlarning vakolatlar	<p>Ayrim moliyaviy lizing bitimlarida lizing beruvchiga ko'plab vakolatlar berilgan bo'lib, u xohlagan paytda lizing bo'yicha tuzilgan shartnomani bir tomonlama, o'zaro roziliksiz tugatishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim an'anaviy lizing shartnomalarida, lizing beruvchi lizing kelishuvini bir tomonlama tugatsa ham, lizing oluvchi dastlabki kelishuvda belgilangan lizing muddati tugagunga qadar ijara to'lovlarini to'lashga majburdir.</p>	<p>Islomiy lizingda esa lizing bitimi faqat lizing oluvchi tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaning biror bir bandini buzsa, lizing beruvchi lizing shartnomasini bir tomonlama tugatishi mumkin. Bundan tashqari, tomonlar roziliklari bilan ham lizing shartnomasini tugatishlari mumkin.</p>
6. Xarajat va zararlarga ma'sul tomon	<p>An'anaviy moliyaviy lizinglarda barcha xarajat va zararlar lizing oluvchi zimmasida bo'ladi.</p>	<p>Islomiy lizingda esa lizingga berilgan mulk islomiy sug'urta hisoblangan takoful orqali sug'urtalangan bo'lsa, lizing muddati davomidagi barcha xarajatlar va zararlar lizing beruvchi tomonidan qoplanadi.</p>
7. Mulkga egalik huquqining	<p>An'anaviy moliyaviy lizingda lizingga berilgan mulk lizing muddati tugaganidan so'ng, odatda, lizing oluvchining</p>	<p>An'anaviy lizingdagi bu holat shariatda joiz hisoblanmaydi, negaki bir savdoning oldi-berdisi ikkinchisi bilan bog'lanmasligi kerak. Bunda lizing beruvchi lizing oluvchiga hozir ijaraga beraman,</p>

o'tkazilish masalasi	mulkiga o'tib ketadi, negaki lizing beruvchining lizing obyektini haqida ishi bo'lmaydi chunki u obyekt uchun qilgan xarajatlarini qo'shimcha daromad bilan qaytarib olgan bo'ladi va ko'p hollarda mulk lizing oluvchining nomiga o'tkazib beriladi va bu oldindan ayrim lizing shartnomalarida bu kelishuv hattoki qayd etilgan ham bo'ladi.	ijara muddati yakunida hadya qilaman yoki sotaman desa, bir savdoning ichida ikki savdo yuzaga kelib qoladi, bu esa shariatda taqiqlangan. Shariat joiz hisoblagan lizingda esa lizing obyektini lizing beruvchining mulki hisoblanadi, lizing oluvchi esa uskunadan foydalanib, ijara haqini to'laydi. Lizing muddati tugaganidan keyin esa, lizing beruvchi uskunani qaytarib olib ketishi yoki qayta shartnoma tuzib lizingga berishi, yoinki lizing oluvchiga yoki boshqa mijozga sotishi mumkin, bu lizing beruvchining ixtiyorida bo'ladi.
-----------------------------	--	--

Shuningdek, ijaraning shartlaridan yana biri lizing muddati so'ngida uskunani hadya qilish yoki sotish sharti bo'lmaydi, ammo alohida hujjatda lizing beruvchi bir tomonlama va'da bergan holda uskunani muddati so'ngida mijozga sotish majburiyatini olishi mumkin. Bu va'da faqat lizing beruvchi zimmasidagi majburiyat bo'ladi, va'da berilgan shaxs shartnomaga kirishga majbur bo'lmaydi, ya'ni u uskunani sotib olishga ixtiyorli, xohlasa oladi, xohlamasa yo'q, Shayx Muhammad Taqi Usmani, (2011).


Shariatda bitta shartnoma ichida ikkita shartnoma bo'lishi mumkin emas. Chunki "sotib olish jarayoni"ning maqsadi aktivning uzufuktlarini o'tkazish maqsadidan butunlay farq qiladi. "Xarid qilish jarayoni" bandini kiritish boshqa shartnoma maqsadiga xizmat qiladi, Kamali (2007).

Lizing obyektini kelishilgan lizing muddati tugagandan so'ng o'z qiymatiga ega bo'lishi kerak. Shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab lizing oluvchi ijara haqini to'lashga majbur emas. Sotish va qaytarib ijaraga berishga ruxsat beriladi, lekin faqat ikkita alohida bitim sifatida bo'lishi talab etiladi. Ijara narxi bozor sharoitlari bilan belgilanadi. Amalda ijara stavkasini aniqlash uchun bozor foiz stavkasi qo'llaniladi, garchi bu aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da. Ijaraning sotishdan farqi shundaki, u mol-mulkni o'tkazuvchida qoladigan korpus yoki egalik huquqini o'tkazmaydi.

Yuqoridagi 2-jadvalda islomiy lizing va an'anaviy lizingning qiyosiy tahlilini tadqiq etdik.

Quyida esa ijara shartnomasiga batafsil to'xtalib o'tishga qaror qildik.

Ijaraning bir qator shakllari mavjud bo'lib, turli manbalardan foylangan holda quyidagi rasmda mualliflar tomonidan yoritilib berilgan:




1-rasm. Ijara shakllari

Ijara bitimida amal qilinishi zarur bo'lgan shariatning bir qator qoidalari mavjud. Bu qoidalardan biri-xiyar ar-ro'yo deb atalib, sotuvchi biror bir tovar haqida tavsif bergan bo'lsayu, lekin bu berilgan tovarning ta'rifiga muvofiq kelmasa (sotuvchi xaridorga buyum haqida bergan tafsilotlarning mos kelmasligi), shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi. Xiyar al-ayb esa-xaridor biror bir tovarni sotib olsayu, lekin u xariddan so'ng tovardan nuqson topsa, bunday holatda ham xaridor bitimni bekor qilishi mumkin bo'ladi. Ijaraning shariatdagi amal qilishi kerak bo'lgan qoidalardan yana biri xiyar ash-sharm bo'lib-bunda sotuvchi va xaridor har

qanday vaqtda belgilangan muddatlar yoinki ma'lum hodisalarga bog'liq holda kelishuvni bekor qilishlari mumkin. To'rtinchi qoida fas'h esa nomlanib, arabcha so'zdan olingan bo'lib, bekor qilmoq, buzmoq, ajratmoq ma'nolarni anglatib, kelishuvni bekor qilishni bildiradi. Eng so'ngi qoida iqola deb nomlanib, xaridor tovarni sotuvchidan sotib olgan, lekin sotib olinganidan nadomat chekib, tovarni o'sha kunning o'zida uzr so'rab qaytarib berishidir. Ba'zi manbalarda iqola "almashtirib berish" ma'nosida ham keltirilgan.

2-rasmda ijara shartnomalarini amalga oshirish bosqichlari chizmasi keltirilgan. Bu sxema qozog'istonlik olim E.A.Baydaulet tomonidan tuzilgan:



2-rasm. Ijara bitimini amalga oshirish chizmasi

1-bosqichda: Mijoz ya'ni ijara oluvchi biznesi uchun kerak bo'lgan uskuna yoki aktivni, shuningdek, buyumni yetkazib beruvchi (sotuvchi)ni ham mustaqil topadi, keyin moliyalashtirish uchun bankka murojaat qiladi va buyum xususida kerakli axborotlarni bankka taqdim qiladi;

2- bosqichda: Buyum xususidagi tegishli ma'lumotlar bank tomonidan ko'rib chiqilgach, mijoz va bank o'rtasida ijara shartnomasiga kirishishga tayyorligi to'g'risida kelishuvga erishiladi;

3-bosqich: Sotuvchi (yetkazib beruvchi) bank nomiga uskuna (aktiv) uchun to'lov hisobini yuboradi va bank o'z hisobidan sotib oladi. Bu jarayonlardan keyin, bank aktivni mijozga beradi va mijoz bank bilan kelishilgan muddatda, o'rnatilgan va o'zgaruvchan narxda ijara to'lovlarini to'lab boradi.

Xulosa va takliflar.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalariga ko'ra xulosa yasaydigan bo'lsak, islomiy moliya shartnomasi ijaraning nazariy asoslari, amaliyotda qo'llanilish tamoyillari, ularga oid masalalar, shuningdek, islomiy va an'anaviy lizing o'rtasidagi farqli jihatlarini tadqiq etdik.

Yuqorida olib borgan tadqiqotimiz natijalari O'zbekistonda islomiy moliya shartnomasi ijara haqida yuridik va jismoniy shaxslar orasida xabardorlikni oshishiga xizmat qiluvchi manba sifatida ko'rilishiga umid qilamiz. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishimizdan islom moliyasi bo'yicha tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan izlanuvchilar tomonidan ham bir manba sifatida foydalanilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotimizning xulosa qismida O'zbekistonda islom moliyasi amaliyoti, xususan, ijara shartnomasi bilan bog'liq amaliyot to'g'risida ham qisqacha to'xtalib o'tishga qaror qildik.

O'zbekistonda investitsiya loyihalarini islomiy moliyalashtirishning boshlanishi 2003 yilda mamlakatimizning Islom taraqqiyot banki (IsTB)ga a'zo bo'lishi bilan bog'liq. 2004-yildan boshlab O'zbekistonda IsTB tomonidan ijtimoiy va infratuzilma sohalarining loyihalarini moliyalashtirish uchun "ijara" va "murobaha" va "istisno" kabi shartnomalaridan foydalanib kelinmoqda. IsTB guruhi tomonidan amalga oshirilgan 20 yillik islomiy moliyalashtirilgan amaliyotlarning qiymati 3 mlrd AQSH dollaridan ortiqdir.

O'zbekiston Islom taraqqiyot banki (IsTB) guruhiga kiruvchi Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (XSRI) a'zosi hisoblanib, bu korporatsiya tomonidan 2010-yil Toshkentda tashkil etilgan Taiba Lizing xorijiy lizing kompaniyasi O'zbekistonda to'liq shariatga mos ravishda ijara (lizing xizmatlarini) xizmatlarini yuridik shaxslarga taqdim etib kelmoqda. IsTB va XSRIK tomonidan taqdim etib kelinayotgan islomiy moliyalashtirish shartnomalar yuridik shaxslarga qaratilgan bo'lib, O'zbekistonda jismoniy shaxslarga mo'ljallangan islomiy moliyalashtirish xizmatlari va mahsulotlari mavjud emas.

Taiba Lizing va Al-Mulk Kapital kabi lizing kompaniyalari esa kichik va o'rta biznes vakillariga Islom tamoyillari asosidagi ijara mahsulotlari taqdim qilib kelmoqda.

2023 yilning 21-22 iyun kunlari Toshkent shahrida "Fintex, banklar, riteyl" PLAS- forumi bo'lib o'tdi. Undagi sessiyalardan biri Markaziy Osiyoda islom moliyasi va uning istiqbollari bag'ishlandi. Forumda so'z olgan Apex bank boshqaruvi raisi Bahrom No'monovning fikricha, islom moliyasining tatbiq etilishi O'zbekistonga har yili 10 milliard AQSH dollargacha investitsiya jalb qilishi mumkin. Aholining 95 foizidan ortig'i musulmonlar ekani hisobga olinsa, islomiy moliyalashtirish mahsulotlariga talab yildan-yilga ortib boradi deb qo'shimcha ham qildi.

Yuqorida keltirilgan dalillar asosida aytishimiz mumkinki, islom moliyasiga O'zbekistonda nafaqat biznes sektori balki aholi tomonidan ham katta talab mavjud bo'lib, so'ngi yillarda hukumat tomonidan ham ushbu sohani rivojlantirishga katta qiziqish bildirilmoqda. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag'larini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun, albatta, milliy bank tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya'ni an'anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini ham joriy etish zarur.

Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Abrorov S.Z., (2020), O'zbekistonda sukuk – islomiy qimmatli qog'ozlarni joriy etish istiqbollari. 08.00.07-Moliya, pul muomilasi va kredit PhD ilmiy darajasi dissertatsiyasi /TDIU T;

Baydaulet, E.A., (2019), Islomiy moliya asoslari [Matn] / E.A. Baydaulet. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, – 432 b.;

Fotima, M. (2006). "Differences and similarities between ijara and conventional operating lease contracts" Market Forces, vol, 1 (4);

Gait, A. and Worthington, A. (2008). An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, International Journal of Social Economics, 35(11), –783-808;

Irgasheva G.S., (2023), O'zbekistonda islom moliyasini rivojlanishida Malayziya tajribasidan foydalanish yo'nalishlari, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal, may, 1-son, 137-145-sahifalar,

www.e-itt.uz.

https://www.researchgate.net/publication/371350969_UZBEKISTONDA_ISLOM_MOLIASINI_RI_VOZLANISIDA_MALAJZIA_TAZRIBASIDAN_FOJDALANIS_JUNALISLARI.

Irgasheva G.S., (2024), Islom iqtisodiyotida investitsiyalar: ularning tashkiliy va boshqaruv tizimi hamda amalda qo'llash tamoyillari.

Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal, yanvar, 1-son, 34-43-sahifalar, www.e-itt.uz.

Kamali, H.M (2007) "A Shariah Analysis of Issues in Islamic Leasing" *Islamic Econ* vol, 20 (1), 3-22.)

Mirakhor, A. and Iqbal, Z. (2011). *An Introduction To Islamic Finance : Theory and Practice*. Singapore: John Wiley & Sons.

Muhammad Taqi Usmani, (2011), *An Introduction to Islamic Finance*. -169 pages;

Saydirasulov L.A., (2023), *Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida islom moliya bozorining imkoniyatlari*, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy elektron jurnal*, 2023-yil, sentabr , 5-son, 120-124-sahifalar, www.e-itt.uz

Zayniddinov R.X, (2022), *O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanishi: to'siqlar va tavsiyalar*. 2/, mart-aprel (№ 00058). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (*Economics and Innovative Technologies*) ilmiy elektron jurnali. DOI: 10.55439/EIT/vol10_iss2/a4. 27-41 b. https://www.researchgate.net/publication/360624788_UZBEKISTONDA_ISLOM_MOLIASINING_RIVOZLANISI_TUSIKLAR_VA_TAVSIALAR

Zayniddinov R.X. (2023). *O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) loyihalarida islomiy moli-yalashtirish konsepsiyasini asoslash va joriy etish*. 1401-1410 betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>. 2023-yil, dekabr. No 11-12-sonlar. https://www.researchgate.net/publication/377408173_Basing_and_introducing_the_concept_of_Islamic_financing_in_public-private_partnership_PPP_projects_in_Uzbekistan

Zayniddinov R.X., Irgasheva G. (2023). *Possibilities of using the experience of Turkiye in the development of Islamic finance in Uzbekistan*. Tashkent, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2023-yil, VII Son - noyabr. 257-270 pages. https://www.researchgate.net/publication/376456185_POSSIBILITIES_OF_USING_THE_EXPERIENCE_OF_TURKEY_IN_THE_DEVELOPMENT_OF_ISLAMIC_FINANCE_IN_UZBEKISTAN